

101. 5 sonini ko'paytirish va 5 ga ko'paytirish

Yondosh mavzu:
savdo va reklama.

Ko'paytirish, ko'paytuvchi,
ko'paytma.



Rangli shakl qaysi shakllar uchligiga
mos keladi?



1. 1 minutda printer 5 ta reklama varag'ini chop etishi mumkin.
2 minutda-chi? 5 minutda-chi?



2. Televizor ko'rsatuvi davomida tez-tez reklama namoyish etiladi.
Agar har bir uzilish 4 minut davom etsa, 5 ta reklama qancha
vaqtni egallaydi?

5 ga ko'paytirish jadvali

a	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
$a \cdot 5$	5	10	15	20	25	30	35	40	45	50




3. Ko'p sonli qo'shishni ko'paytirish bilan almashtiring va hisoblang:
- $$(5 + 5 + 5 + 5 + 5 + 5 + 5) + 27$$
- $$(9 + 9 + 9 + 9 + 9) - 26$$
- $$90 - (5 + 5 + 5 + 5 + 5)$$
- $$78 - (8 + 8 + 8 + 8 + 8)$$



4. Toping:

- a) agar beshburchakning barcha tomonlari 6 cm ga
teng bo'lsa, uning perimetrini;
b) tomoni 5 dm bo'lgan kvadratning yuzini;
d) har bir bo'g'ini 5 cm dan bo'lgan 7 bo'g'inli siniq
chiziqning uzunligini.




101. 5 sonini ko'paytirish va 5 ga ko'paytirish



5. Besh quti sharbatdan iborat qadoq 14 tanga turadi. Agar sharbatlar alohida sotib olinsa, ularning har bir qutisi 3 tangaga tushadi. Qaysi biri arzon: alohida 5 quti sharbatmi yoki bir butun qadoq sharbatmi? Qancha arzon?



3 tanga



14 tanga



6. Do'kondan ro'yxat bo'yicha xarid qilindi. Xarid uchun qancha pul to'landi?

Mahsulot	Miqdori	1 kg uchun
Kartoshka	5 kg	4 tanga
Piyoz	3 kg	2 tanga
Un	4 kg	4 tanga



7. Ifodalar tuzing.

a) Bir shisha yog' 9 ming so'm turadi. Shunday 3 shisha yog' uchun qancha to'lash kerak? 5 shisha uchun-chi? n shisha uchun-chi?

b) Do'konga 5 tokchali shkaf o'rnatildi. Agar bir tokchaga 8 ta banka sig'sa, bu shkafga nechta banka joylash mumkin? Bir tokchaga 10 ta banka sig'sa-chi? k ta banka sig'sa-chi?



8. Amallar tartibini ko'rsating va ifodani hisoblang.

$$175 + 466 - (702 - (307 + 193) - 217)$$



9. Qalin daftarning narxi 5 tanga. Abror 8 ta daftar sotib olmoqchi. Qaysi biri arzon: alohida 8 ta daftarmi yoki 35 tangalik bir qadoq daftarmi? Qancha pul tejash mumkin?



Har biri
5 tangadan



35 tanga